


Ammiakli selitra ishlab chiqarish sexi

// 22 April 2026 yil


<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ammiakli-selitra-ishlab-chiqarish-sexi>



Ishlab chiqarishning to'liq nomi - birlamchi quvvatda modernizatsiya qilingan katta tonnali AS-72M agregatida donalastirilgan ammiakli selitra ishlab chiqarishi. 1987-yildan boshlab ishlab chiqarish quvvati - yiliga 450 ming tonna ammiakli selitra (yiliga 155,7 ming tonna ozuqlantiruvchi moddalar) ishlab chiqaradi. Moskva shahrining azot sanoatining davlat instituti ASDI (GIAP) ushbu ishlab chiqarishning bosh loyihalashtiruvchisi hisoblanadi.



- 2006-yili azot- fosforli o'g'itini olish aralashtirish uskunasi ishga tushirilgan.
- 2007-yili ammiakli selitra va karbamid suvli eritmalari aralashmasida suyuq azotli o'g'itni olish uskunasi ishga tushirilgan.
- 2008-yili O'zbekistonda birinchi bo'lib tayyor mahsulotni katta 500 kg va 1000 kg «BIG-BEG»ga qoplash uskunasi ishga tushirildi.
- 2011-yilda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib past zichlikdagi ammoniy nitrat ishlab chiqarish bo'linmasi ishga tushirilgan. Past zichlikdagi ammoniy nitrat (g'ovakli selitra) ishlab chiqariladigan mahsulotning 90% eksportga va 10% davlatimizning ichki bozoriga muljallangan. Ishlab chiqarish quvvati – yiliga 60 ming tonna.
- 2013-yili universal ozuqa eritmalarini tayyorlash uskunasi ishga tushirilgan.
- 2014-yili donador azot-oltingugurtli o'g'itini olish uskunasi ishga tushirilgan.
- 2021-yili ammiakli selitra donalarini yopishishga qarshi vositasi bilan qoplash uchun yopishishga qarshi vositani tayyorlash uskunasi ishga tushirilgan.



"Maxam-Chirchiq" AJ Matbuot xizmati